



O'ZBEK IMO-ISHORA TILI IMO-ISHORALARINING MA'NOLARINI
IFODALASH USULI

Qahramonova Iroda

Nizomiy nomidagi O'zMPU

Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti

Surdotarjimon yo'nalishi talabasi

Tel: +998881179694

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbek imo-ishora tilining mohiyati, uning vizual-motorli aloqa vositasi sifatidagi funksiyasi hamda imo-ishoralar orqali ma'no ifodalash usullari yoritilgan. Imo-ishora tilining o'ziga xos lingvistik tizimga ega ekani, uning mimika, tana harakatlari va pauzalar kabi qo'shimcha vositalar bilan boyitilishi ta'kidlangan. Shuningdek, maqolada imo-ishoralarning zamon bilan o'zgarishi, ya'ni til dinamikmi, va ularni to'g'ri qo'llash zaruriyati ilmiy misollar orqali asoslab berilgan. Pantomimik harakatlar va imo-ishoralar o'rtasidagi farqlar ham tahlil qilingan. Maqola O'zbek imo-ishora tilining jamiyatdagi ahamiyatini ko'rsatish bilan birga, uning ilmiy yondashuv asosida o'rganilishi lozimligini alohida urg'ulaydi.*

Kalit so'zlar: *O'zbek imo-ishora tili, mimika, dinamizm, pantomima, muloqot, semantika*

Аннотаци. *В данной статье рассматривается суть узбекского языка жестов как визуально-моторной системы общения, а также способы выражения значения с помощью жестов. Отмечается, что язык жестов обладает уникальной лингвистической структурой, обогащённой мимикой, движениями тела и паузами. В статье также раскрывается феномен динамичности языка, заключающийся в его изменении со временем, и подчёркивается важность использования принятых, научно обоснованных жестов. Рассматриваются различия между жестами и пантомимическими действиями. Работа подчёркивает значение узбекского языка жестов в обществе и необходимость его изучения на научной основе.*

Ключевые слова: *узбекский язык жестов, мимика, динамизм, пантомима, коммуникация, семантика*

Abstract. *This article explores the essence of the Uzbek sign language as a visual-motor communication system and discusses the methods of conveying meaning through signs. The language's unique linguistic structure, enriched with facial expressions, body movements, and pauses, is emphasized. The paper also highlights the concept of language dynamism, reflecting changes over time, and stresses the importance of using standardized, scientifically recognized signs. Differences between sign language gestures and pantomimic actions are analyzed. The study underlines the societal importance of the Uzbek sign language and the necessity of its academic study.*



Keywords: *Uzbek Sign Language, facial expressions, dynamism, pantomime, communication, semantics*

O'zbek imo-ishora tili – karlar va eshitish qobiliyati zaif bo'lgan shaxslar tomonidan qo'llaniladigan vizual-motorli aloqa tizimi bo'lib, imo-ishoralar, yuz ifodalari va tananing boshqa harakatlarini o'z ichiga oladi.

Odatda, sog'lom eshituvchi insonlar imo-ishora tilini o'rganishni oson deb hisoblaydilar. Ular oddiy qo'l harakatlari orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarga mazmunni tushuntira olishlariga ishonadilar. Aslida bu noto'g'ri fikrdir. Imo-ishora tili orqali muloqot qilish tajribasiga yillar davomida ega bo'lgan shaxslar ham ba'zida ma'nolarni farqlashda qiyinchiliklarga duch keladilar.

O'zbek imo-ishora tili ham boshqa tabiiy tillar kabi vaqt o'tishi bilan sayqallanib, o'zgarib boradi. Imo-ishoralar tarkibi zamonga qarab yangilanadi. Bu holat lingvistikada "dynamizm" atamasi bilan ifodalanadi. Xuddi o'zbek tilida ilgari keng qo'llangan "podshoh", "xon" kabi so'zlar hozirda eskirgan bo'lib, ularning o'rnini "prezident", "menejer" kabi so'zlar egallaganidek, imo-ishora tilida ham yangilanish kuzatiladi.

Imo-ishoralar o'ziga xos ma'no ifodalaydi. Masalan:



"QUYOSH"



" HURMAT"



"MEHRIBON"

Bundan tashqari, mimika – yuz ifodalari (masalan, qoshni ko'tarish, qoshni chimirish, labni qisish, ko'zlarni keng ochish) imo-ishoralarga qo'shimcha ma'no yuklaydi. Muloqot jarayonida ba'zan imo-ishoralardan so'nggi pauzalar ham ma'no ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Misol uchun:

1. Men bayramga bordim. (Darak gap)



2. Siz bayramga bordingiz? (So'roq gap)





3. Biz bayramga boramiz! (Undov gap)



Imo-ishoralarning ma'nolarini to'g'ri ifodalash uchun ilmiy jihatdan asoslangan, qabul qilingan ishoralardan foydalanish zarur. Tasodifiy ishoralarni qo'llash, birinchidan, tilga nisbatan hurmatsizlik hisoblanadi. Ikkinchidan, matn mazmuni buzilishiga olib keladi. Uchinchidan, noto'g'ri fikr va tushunchaning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, ilmiy muomalada bo'lgan, aniq va standartlashtirilgan imo-ishoralardan foydalanish muhimdir.

Masalan:

“Men 8-sinf o'quvchisiman va universitetda o'qiyman” – noto'g'ri.

“Men 8-sinf o'quvchisiman va maktabda o'qiyman” – to'g'ri.

Asosli imo-ishoralar – eng keng tarqalgan, o'ziga xos ma'noni ifodalaydigan ishoralar hisoblanadi. Har bir imo-ishora uning funksiyasi va faoliyatiga qarab shakllanadi. Misollar:



"shanpanvino

Pantomimik harakatlar esa – biror voqea yoki ob'ektni tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu harakatlar real voqealarga taqlid qilinadi. Imo-ishoralar bilan pantomimik harakatlar o'rtasida farq mavjud: imo-ishoralar aniq ma'no ifodalasa, pantomimik harakatlar faqatgina ko'rgazmali harakat bo'lib, mustaqil ma'no anglatmaydi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova, M. (2020). O'zbek imo-ishora tilining lingvistik xususiyatlari. Toshkent: Ilm Ziya nashriyoti.
2. Rasulova, G. (2019). "Nogironlar bilan samarali muloqotda imo-ishora tilining o'rni". Til va jamiyat, №1, 34–38-betlar.
3. Toshpulatova, N. (2021). Imo-ishora tili: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
4. Qodirov, Sh. (2022). "Til dinamikasi va zamonaviy kommunikatsiya vositalari". Filologiya va tilshunoslik muammolari, №2, 45–50-betlar.
5. Normurodov, A. (2023). Mimika va pantomimaning muloqotdagi o'rni. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.